

## BALET SAN'ATINING ROSSİYADA VUJUDGA KELISHI VA AFSONAVIY BALET IJODKORLARINING IJODIYOTI

*Madina Ashurovna Muxamedova*

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*Katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada rus balet maktabi, xoreografiya asoschilarining faoliyati, raqslari, Rossiyada balet san'ati tarixi va uni ilmiy o'rganilgani tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** balet, tarix, raqs, ijodkor, san'at, xoreografiya.

Balet san'atining asosi xalq raqsi hisoblanadi. Klassik raqsda sahna harakatlarining aniq ishlovi tanani tik tutuvchi holati bilan bog'liqdir. Balet spektakllarining dramaturgiyasinin ochib berishda personajlarning harakatlarni yaqqol ko'rsatishda boy manbalardan keng foydalaniladi.

Xoreografiya san'atida faqat klassik raqs emas balki sahna raqslarining turli janrlaridan foydalaniladi. Klassik raqsning ifodali vositalaridan to'g'ri foydalanishi kerak. Har qanday asarni yaratishda xoreografiya janridan ifodali vositalardan to'g'ri foydalanish baletmeysterga bog'liq rus, baletmeysteri M.I.Petipa, A.I.Ivanov, M.M.Fokin, A.A.Gorskiy klassik raqsni va maktabi bilimlarini chuqur o'rganishgan yuqori badiiy asoslarni zamonasiga qarab yaratganlar. Shu sababdan, bu raqs ustalarining ijodlari tarixda “Navato”-deb xisoblanadi. Keying avlod baletmeysterlari F.V.Lopuxov, K.Y.Galerovskiy, L.M.Lovzovskiy, R.V.Zaharov, V.I.Vaynone, K.M.Sergeyev, V.P.Bormeysterlari, Yu.An.Grigarovich, I.D.Belskiy, L.B.Yakobson, O.M.Vinogradov va boshqalar haqida ham shu fikrlarni aytish mumkin. Klassik raqsning avvalgi professional maktablari Fransuz, rus va Italiya maktablari o'zlarining milliy chuqurlashgan an'analarga ega.

Lekin ularning xoreografik asoslari harakatlar tarkibi bir xil: shunday bo'lsada ijro usuli harakat maneralari ma'naviy, badiiy va milliy oziga xosligi bilan ijrochi ijodida farqlanadi.

Fransuz balet maktabi ijro texnikasining yuqoriligi nozik uslub harakat tarzining yuqoriligi yengil, hush qomat va gohida nafisligi bilan ajralib turadi. Italiya maktabida yuksak mahorati texnika jiddiy uslub ba'zida bo'ktirilgan ijro intiluvchan, zo'r g'ayratli harakatlar qat'iy, oddiy bosiq va yumshoq, tashqi efektlardan holi va bor texnika bilan ijro etish hosdir. Undan tashqari Rus balet maktabiga “Modern” uslubi begona hisoblanadi.

Sharl Didloning ijodiy faoliyati. U XIX asr boshlarida maktab uchun katta ahamiyatga ega edi. Qaysiki Imperatorlar teatralniy uchilishisini uning nomi bilan

nomlab, ko'plab ijodiy faoliyatga ega fransuz baletmeysteri va pedagogi Sharl Didlodir. O'sha davrning o'zidayoq Rus baletida o'ziga xos milliylik ruhida shakllanib borib, Rus balet maktabida o'ziga xos stilda qaysiki oldinlanib borayotgan boshlovchi Italiya va Fransuz dunyo balet maktablarining mos keluvchi yaxshi qismlarini o'zlashtirib olgan.

Yosh raqqoslarning birinchi harakatlaridayoq Rus ijrochilik mahorati xis qilinar edi va milliy harakterdagi ovoziylik va yengillik ko'rinar edi. Pedagoglarning o'zaro kelishuvi orqali, balet maktabini rivojlantirishuvi uchun Ivan Ivanovich Valberxni tayinlashdi. U birinchi Rus baletmeysteri bo'lib ko'plab iqtidorli artistlarni tarbiyalovchisi, ular ichidan yorqin raqqosalardan va drama aktrisaridan bo'lmish Yevgeniya Kalasovani misol qilib olsak bo'ladi. Valberx – Sharl Didlo kelguniga qadar teatr uchun maktabda yangi truppa tashkil qilib tayyorlaydi.

Didlo Peterburgga 1801 yilda keliboq, Peterburg baletiga to'la qonlik ega bo'lib boshqardi. U maktab uchun katta e'tibor berib, unga rahbarlik qila boshladi. Didlo maktabda yigirma yildan ortiq tarbiya beradi. Uning tashabbusi orqali baletning ijodiy faoliyati katta pog'analarga ega bo'ldi.

Didlo tashkil qilgan klassik raqs sistemasi – oldingidan boshqa ko'rinishga ega bo'lib, ball va xalq raqslariga yaqinligi bor edi. Pedagog o'quvchilaridan nafaqat texnik harakatni ko'rsatishini balki ulardan aktyorlik mahoratini ham talab qilar edi. Bunga A.S.Pushkin shunday degan edi. Didloning baletlarida Fransuz adabiyoti kabi sh'riyat mujjasam edi.

1816 yili Avgotiya Istomina Didloning tarbiyalanuvchilardan biri maktabni tugatgandi. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asaridagi bosh ro'l obrazi Yevgeniyini o'zgacha mahorat ila qoilmagom ijro etganida katta olqishlarga sazovor bo'lgan edi.

Oxir oqibat Didlo uchun ham shahari bo'lgan Petipa, ularga ikkinchi vatani bo'lib qolgan, Rossiyada katta yangiliklar kiritdi. Rus baleti, chet-elda XVII-XIX asrlari ichida o'zga yerdagi teatrlarda ham mashhur bo'lib keldi. Romantizm davrining yorqin yulduzlaridan, birinchi bor “Silfidani” o'ynagan Mariya Taloni Peterburg shahrida 1837 yili tashrif buyurdi. Uni dunyoga mashhur qilgan “Silfida” baleti edi. Avgust Burnanvilning o'quvchi 1841 yili Peterburgga Shvetsariyalik Xristian Iogansaon keladi va umrining oxirigacha shu yerda qoladi.

U Peterburg maktabida o'qituvchilik faoliyatini 1903 yilgacha ko'rsatadi. Uning o'quvchilari katta iqtidorga ega insonlar bo'lib yetishishgan. Masalan: P.Gert, N.Letag, M.Knejnskaya, A.Pavlova, T.Karsavina, A.Vaganovalar edi. Lekin baribir rus balet maktabiga romantic bag'ishlagan fransuz raqqosi va baletmeyster Julya Perro edi, qaysiki Peterburg shaxrida 1848 yildan 1859 yilqacha ishlagan. Marius Petipa esa Peterburg shahriga 1947 yili kelib Rus balet maktabiga aniq yangilik va rivojlantirish kiritgan desak to'g'ri bo'ladi.

1673 yilning 8 fevralida Aliksey Mixaylovich saroyi Rossiyada birinchi balet spektakli bo‘lib o‘tadi, bu balet spektaklni chet-ellik Nikolay Lim tayyorlagan edi. Uning kim bo‘lgani, qayerdan kelib chiqqanligi ham aniqlanmagan. U o‘sha davrda vujudga kelgan balet truppalarning rahbari, baletmeysteri, o‘qituvchisi va albatta ilk raqqosi bo‘lgan edi.

Limning ko‘l ostiga o‘ndan ziyod o‘quvchilar topshirildi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay ularning soni tobora ortib boraverdi. 1673 yilga kelib Kreml teatrida Limning Fransiya millatiga mansub “Evrudika va Orfey” baletlari ijro etildi. Bu balet fransuzcha uslubda yo‘naltirilgan bo‘lib, uning dekoratsiyasi piramidalar ko‘rinishida bo‘lgan. Bu rus sahnasida taqdim etilgan ilk professional darajadagi balet spektakli edi. Keyinchalik Peterburgda raqslar saroyining ajralmas urf-odatiga aylandi.

Rus baleti tarixi 18 asrning 30 yillaridan boshlanadi. 1731 yilda Peterburgda Suxoput shlyaxet bo‘limi ochiladi. Bo‘lim bitiruvchilari davlatning yuqori lavozimlarini egallashlari lozim bo‘lganligi bois, ular san‘atning nozik qirralarini o‘rganishlari lozim edi. Shu o‘rinda bal raqslarini ham va buning uchun bo‘limda maxsus joy ajratilgan edi. Bo‘lim tansmeysteri 1734 yilda Jan Batist Lande bo‘ldi. U rus balet san‘atining asoschisi hisoblanadi. 1738 yilda Jan Batist Lande bilan birga hamkorlikda Rossiyada birinchi balet-Qirollik raqs maktabi ochildi (hozirgi A.Ya.Vaganova nomli rus balet akademiyasi). Rossiyada balet tobora rivojlanib boraverdi. 1794 yilda birinchi rus baletmeysteri Ivan Valberxning sahnalashtiruv ishlari boshlanadi. Pavel I boshchiligida baletning o‘ziga hos qonunlari paydo bo‘ldi-tomosha mobaynida sahnada bironta ham erkak bo‘lmasligi amr etilgan edi va erkaklar rolini ham o‘sha davrda ayollar ijro etishgandi. Ulardan: Yevgeniya Ivanovna Kolosova (1780-1869). Kolosova balet sahnasida birinchi rus raqslarini ijro etgan raqqosadir. U keng uslubdagi liboslarni antik ko‘rinishdagilariga almashtirdi. Balet artisti va baletmeyster Adam Glushkovskiy Kolosova haqida: “Men qiriq yildan ziyod raqs san‘atida bo‘ldim, uni kuzatdim, Rossiyaga kelgan ko‘plab taniqli balet artistlarini ko‘rdim, lekin Yevgeniya Ivanovna Kolosova singari Peterburg teatr raqqosasi, iqtidor egasini ko‘rganim yo‘q. Uning har bir yuz harakati har bir jesti shunchalik tabiiy bo‘lib, tomoshabinlar uchun so‘zsiz barchasi tushunarli edi”. Yevgeniya Kolosova sahnada 1794 dan 1826 yillarga qadar ijod qildi, so‘ngra murabbiylik faoliyatini olib bordi.

Yevgeniya Kolosovaning o‘quvchilaridan Avdotya (Yevdokiya) Ilinichna Istomina (1799-1848) bo‘lgan. O‘sha davrning yorqin balerinalaridan yana biri Mariya Ivanovna Danilova (1793-1810) bo‘lib, uning ijodiy yo‘li 17-yoshida tuberkulez kasali tufayli o‘z nihochsini topadi. Tarixchilar hali-hamon qaysi rus balerinasini ilk bor puantada raqsga tushganligi haqida baxslashishadi (oyoq uchiga tayangan xolda). Ba’zilar Mariya Danilova deb bilishsa, boshqalari Avdotya Istomina deb tahmin qilishadi.

Yevgeniya Kolosovaning yana bir o‘quvchisi Yekaterina Aleksandrovna Telesheva (1804-1857) bo‘lgan. XIX asrning mashhur balerinas Mariya Sergeevna Surovshikova-Petipa (1836-1882) bo‘lib, uning turmush o‘rtog‘i bplet artisti Marius Petipa bo‘lgan. Keyinchalikda ota-onasining izidan borgan Petipa jufti artistlarning qizi Mariya Mariusovna Petipa (1857-1930) ham mashhur balet artisti darajasiga yetadi. 17 yil davomida o‘z umrini (1861-1878 gacha) Mariinskiy teatr sahnasiga bag‘ishlagan Matilda Nikolayevna Madayeva ijod qiladi.

XIX asr Moskva balet maktabining ko‘zga ko‘ringan balerinas Praskovya Proxorovna Lebedeva (1839-1917) bo‘ldi, u 10 yil davomida Bolshoy teatrning yetakchi raqqosasi bo‘lgan. Bolshoy teatrning yan mashhur raqqosasi Lidiya Nikolayevna Geyten (1857-1920) edi. Geyten Bolshoy teatr sahnasida raqibga ega bo‘lmay 20 yil davomida u deyarli barcha ayol rollarini ijro etdi. 1883 yilda Bolshoy teatr balet trupпасi qisman qisqartirildi, lekin Geyten Moskva balet ananalarin saqlab qolish maqsadida Peterburg teatriga borish taklifidan bosh tortdi. Sahnadan ketganidan so‘ng Geyten Moskva xoreografiya bilim yurtida ta‘lim berdi.

1830 yil (1855-1885 yy) Peterburg imperatorlik teatr sahnasida ijod qilgan Lyubov Petrovna Radina (1838-1917). XIX asrning 60 yillarida Peterburg, Moskva va Parij sahnalarida Marfa Nikolayevna Muravyova (1838-1879) o‘zini namoyish etdi. Italiyalik baletmeyster Karlo Blazis: “raqs ijro etayotgan vaqtida uning oyoqlaridan olmoz uchqunlari sachiraydi”- deb yozgan edi. 1859-1879 yillarda Bolshoy teatrdan Anna Iosifovna Sobes hanskaya (1842-1918) ijod qilgan. 1877-1893 yillar mobaynida Peterburg imperator teatri balet trupпасida Varvara Ivanovna Nikitina (1857-1920) raqsga tushardi.

**Petipa davri.** XIX asrning ikkinchi yarmini Petipa davri desak adashmaymiz. Chunki buyuk baletmeyster ko‘plab o‘zgacha spektakllarning egasi va o‘zining avlodlari uchun balet harakatlarini saqlab va boyitib kelgan insondir. L.Ivanov bilan ishlagan Petipa buyuk kompozitorlarni Chaykovskiy va Glazunovlarni jalb qilib yangi balet paydo bo‘lishiga asos soldi. Ohir oqibat ijodiy birlik orqali simfonik obrazdagi raqs hosil bo‘ldi. Musiqa dramaturgiyasi esa balet spektaklida kompozitor va xoreografning birikishini hosil qiladi, qaysiki simfonik raqsning yo‘lida birlashdi. Pedagoglik bo‘yicha intiluvchanlik Petipani hamkasblari uni qo‘llab quvvatlashar va uning ijodini davom ettirishar, o‘quvchilar va davomchilari Xristian Ioganson, Nikolay Letat, Olga Preobrajenskaya va boshqalar, bundan tashqari Italyan hayoliy maktabning vakillaridan biri Enriko Chekkti ham edi. Aynan bu ijodiy borada A.Vaganovning dunyoqarashi shakllanib bordi, qaysiki sovet davrida sistema asosida klassik raqs pedagoglik matodini ishlab chiqqan. Hozirgi kunda esa Vaganovning matodikasi, hamma tan olgan sistema asosidagi professional balet tayyorlovchi artistlar metodi hisoblanadi. 1836 yil “Jadche Rossi” ko‘chasida joylashgan zamonaviy imoratda yangi uchilish ochiladi. Qaysiki yarim asr ichida bitta tam ostida joylashgan maktab va

Imperatorlar balet truppasining repetitsion bazasi hisoblangan. (Marinskiy balet teatri). Uning sharofati bilan XIX asr ning ikkinchi yarmida Peterburg shahrida, buyuk baletmeyster Marius Petipa (Fransuz, lekin o'ziga Rossiyani ikkinchi vatani qilib olgan) akademik repertuarlarni tashkil qilib, klassik raqsni esa badiiy ko'rinishga olib ketishga erishgan va katta professional truppani tarbiyalashganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida maktabda boshlovchi o'qituvchilardan biri Xristian Ioganson edi. 1909 yildan 1914 yilga qadar Parij shahrida “Rus mavsumi” nomi bilan baletlari xilma-xilligi ko'rsatilib Rus madaniyatini tanitadi, baletga qiziqish uyg'otishadi va boshqa davlatlarga ham baletni rivojiga rivojlantirish ruhini olib kiradi. Revalyutsiyadan so'ng, birinchi bor ocharlik, sovuq va xor bo'lib yotgan binoga qaramasdan, maktab teatr uchun yangi kadrlar ta'minlab berishdan to'xtamadi. Ular 5 yil ichida o'quvchilar soni ikki barovar ko'paydi.

**Birinchi xoreografiya professori A.Y.Vaganova.** Buyuk pedagog, xoreografiyaning birinchi professori A.Y.Vaganova 1921 yildan boshlab xoreografiya maktabida ishlay boshladi. Vaganova 14 iyunda 1879 yili Peterburg shahrida Marinskiy teatrida ishlaydigan kopeldinerlar oilasida tavvalud topadilar. 1889 yili Sankt-Peterburg shahridagi teatralniy uchilishiga o'qishga kiradi (hozirda bu maktab akademik Rus balet maktabi). Oblakov, Vezem, Ivanov, Ioganson va Gertlar o'qituvchilari bo'lgan. Maktabni 1897 yili tugatadi. 1897 yildan 1816 yilga qadar Marinskiy teatrida faoliyat ko'rsatadi.

Pedagoglik ish faoliyati 1918 yilda boshlanadi, boshida kichik “Miklosa” maktabida, keyin esa Valinskaya nomli Rus balet maktabidan dars beradi. 1921-1951 yilgacha Peterburg va Petragrad uchilishisida 29 da ortiq mashhur bittiruvchi san'atkor baleron va balerinalar klassik raqs fanidan bosh pedagog sifatida ta'lim berdi. Ulardan: M.T.Seminova, G.N.Kirilova, A.Y.Shelst, O.N.Maiseyeva, N.A.Kurgapkina, A.E.Osipenko, I.A.Kalpakovlar edi.

1934-1941 yilgacha uchilishida boshlovchi pedagoglarga rahbar sifatida, 1946-1951 yillarda esa Leningrad konservatoriyasida xoreografiya zavediyushiysi va tashkilotchisi bo'lib faoliyat ko'rsatadi. O'sha davrda Ioganson o'qituvchi bo'lgan bo'lsa, Petipa esa, baletmeyster va postanovkalarni bo'lib ishlagan. Yozuvchi Nikolay Legatning aytishiga qaraganda “Ular o'zaro boshqaruvni bo'lib olishgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida biz bilgan Rus baletini, Rus baletining rivoji, shakllanishida biri klassik raqs hudosi edi. Ikkala tomondagi boshqaruv hech kimga o'xshamagan va qo'il qolar darajada uzviy bog'liq bo'lgan” – degan edi.

**Xronologik qo'shimcha ma'lumotlar.** XIX asr oxiri XX asr boshlarida klassik raqsda, katta tarbiyalovchilardan P.Gert o'qituvchilik qilar edi, qaysiki oldingi partiyalar ijrochisi va balet qahramonlaridan edi.

U ko'proq tarbiyalovchilariga artistislik mahoratini, o'rgatishga ahamiyat berar edi. Uning yorqin o'quvchilaridan A.Pavlova va T.Korsavinalar edi.

1892 yildan 1902 yilgacha esa maktabda Italiyalik raqqos baletmeyster Enriko Cheketti dars berar edi. U ko'proq erkaklar raqsiga e'tibor qaratgan edi. Chekettining sharofati orqali Rus balet san'atidagi ijodkorlarga, Italiya maktabi stili va hususiyatlarini qo'llab hayoliy texnikani olib kirib yangilik yaratadi.

Petipa Rossiyani tark etganidan so'ng uning o'rniga boshlovchi pedagoglardan N.Legat, Peterburg klassik raqs an'alarini saqlovchisi bo'lib qoladi. 1892 yili esa M.Fokin Rus balet reformatorlar maktabini bitirib 1904 yildan 1916 yilga qadar maktabda dars berib, pedagoglikni asoslab oldi. Fokinning reformatsiyasi, balet obraziga tabiiylik harakatlarini kiritdi, bundan tashqari uchilishga o'zining uslubidagi faoliyatini kiritdi va qaysiki u bir nechta baletlarni sahnalashtirdi. Misol qilib “Shopeniana” baleti mashhurlaridan biri edi. 1899 yili esa Gertning eng sevimli o'quvchilaridan biri Anna Pavlova maktabni bitirdi. Buyuk bu baleniraning butun dunyoga Rus baletini tanitdi. Pavlova uchun bu esa katta imkoniyat edi.

M. Fokin ish faoliyati bilan uzviy bog'liq edi. Pavlova va Korsavinaning shon – shuxratini bemalol V.Nijinskiy bilan bo'lish maqsadiga muvofiq bo'lar edi. Chunki Nijinskiy ularning para bo'lib raqs tushgan xoreograf edi. 1931-1937 yillargacha Morinskiy teatrida badiiy rahbar sifatida faoliyat ko'rsatib Lebidinnaya Ozero (1933) va Esmaralda (1935) baletlari sahna ko'rinishlari haqidagi kitob nashr etadi.

1943-1944 yillarda “Katta teatrdagi” balet bo'yicha badiiy consultant bo'lib ishlaydi va M.M.Pesetskayani professionallik darajasiga erishishiga katta ta'sir ko'rsatdi. U ko'plab avlodlari uchun mashhur balerinalarni tarbiyaladi. Praktikalardan ta'surotlar olgan tirishqoq tadqiqotchi Vaganova, “Основа классического танца” darslik qo'llanmasini chiqazardi (bu kitob besh marta nashr etilib: 1934, 1939, 1948, 1963, 1980 yillarda, 10 dan ortiq tillarda tarjima qilib chop etilgan) Rus raqs maktablarining yaxshi xususiyatlari rivojlantirish maqsadida o'ziga xoslik kiritdi. Vaganova harakatlar kordinatsiyasida atroflicha tadqiqotlar o'tkazib yangi kashfiyotlar ochdi.

Yorqin holdagi pedagog faoliyati Vaganova va uning kitobi, o'zi uchun katta shuxrat olib keluvchi pedagog sharafiga ega bo'ladi. Uning kitobi nafaqat Rossiyada, balki butun dunyo klassik raqsida “Vaganova metodi” bo'yicha qo'llanilib kelinmoqda.

Vaganova teatridagi Rus baletini sahnada praktikasida bo'lganida XIX asr ikkinchi yarmida (Petipa ijodida) Fransuz klassik raqsidagi an'analarda (Ioganson bunga yorqin misoldir) yangi hayoliy Italyan maktabini (E.Cheketti) eski ham – kasblar ta'limi orqali N.G.Legata va O.L.Preobrajenskaya orqali birlashtirib kelgan.

1946 yil Vaganovaga jamoa faoliyatida birinchi bor professorlik unvoniga xalq artisti bo'lib 1934 yil tayinlanadi. 1951 yil Leningrad shahrida 5 noyabrda vafot etadi. 1957 yilda Leningrad xoreografiya maktabiga uning nomi berilgan edi. Hozirda bu maktab rus balet akademiyasi deb ataladi. 1988 yili esa Sankt-Peterburgda Vaganova

nomiga konkurs tashkil etiladi. 1995 yil esa bu konkurs “Vaganova-Prixt” deb nomlanadi.

Mihail Mihailovich Fokin Peterburg baletining reformatori (ishlovchisi) bo'lib chiqdi. Yuqori sinflarda o'qiyotganda u Gerdert va Legat kabi ustozlardan ta'lim olgan va 1898 – yilda bo'lajak birinchi darajali artist sifatida maktabni tamomladi. U turli duet va triolarda raqsga tushardi va keyinchalik Chaykovskiy va Glazunovning Paxita, Boyaderka, Arlignada, Probujdeniye Flori va boshqalarda bosh ro'llarni ijro etdi. 1904 – yilda u maktabdagi Gerdok o'rnini egallab o'qituvchilik qila boshladi. Maktabda Fokin oz – ozdan balet sinfining harakatlarini yangilab erkin plastikani ishlab chiqdi.

Yosh Fokin maktabda Mentelsonning “Son v Letnuyu noch” (1906), Chaykovskiyning “Vremena goda” (1909) baletlarini sahnalashtirildi. Xoreografiya san'ati qayta tiklangan pantomime bilan ya'ni asar qahramonlarining harakat va psixologik mazmuni bilan boyitildi. Milliy va tarixiy Koloridni (uyg'unlik) yetkazib berishda raqsning huquqlari yanada kengaydi. Hulas Fokinning katta mehnati 20 asr Rus balet teatrining asosiy qismi bo'lib qoldi. Balet tilida Duet – “Pa de de” Trio – “Pa de tua” deb etiladi va yoziladi.

Tamara Platonova Karsavinaning taqdiri Fokin ijodi bilan bog'liq edi. 1902 – yilda maktabni tamomlab Korsavina o'sha davr repertuarining solisti va yetakchi faoliyat ko'rsatuvchi artist ro'llarini rgalladi. U 1904 yilda “Probujdeniye Flori” baletida 1 – bor bosh ro'lni ijro etdi va undan so'ng “Konyok Gorbunok”, “Lebidinnoe Ozero”, “Korsar” kabi baletlarida yetakchi ro'llariga ega bo'ldi. Fokin bilan ijodiy faoliyati unga o'z yo'lini tanlashda yordam berdi. Karsavina plastic yo'nalishining plastic ustasi bo'lib yetishdi. 1914 – yilgacha Karsavina Fokinning raqqosasi bo'lib ishladi. U Kolompining “Karnaval” baletidagi “Jar ptica” ro'lini birinchi bo'lib ijro etdi. “Prizrak Pozi” baletida dushka, “Petrushka” baletida ballerina, “Tamara” baletida Tamara va ro'llarni ijro etdi.

Anna Pavlova — 1881 – yil 12 – fevral kuni Peterburg shaxrida mashhur ballerina dunyoga keladi. Xozirgacha Annaning otasi to'g'risida xech qanday ma'lumotga ega emasmiz. Katta kitoblarda yozilishicha Annaga goh Pavlovna goh Matviyevna deyishgan. Balerinaning o'zi esa otasining ismi bo'yicha chaqirishlarini unga xush ko'rardi. O'tgan asrning 80 – yillarida Sankt – Peterburg arxivlaridagi ma'lumoticha onasi Lyubov Fyodorovna rostdan ham Matviyev Pavlovich Pavlov rostdan ham turmush qurishgan ekan. 1912 – yilda Anna Pavlova o'zining yozgan avto – biografiyasida shunday yozadi: “Men esimda Peterburgda onam bilan kichik uyda qashshoq yashardik, shunga qaramay onam bayramlarda menga sovg'a berardilar, teatrga ham tez – tez olib borardi. Esimda o'shanda 8 yosh edim “Uyqudagi go'zal” spektakliga olib kirgandi va men uning olamiga kirib qoldim va 10 yoshga kirgach Imperatorlar maktabiga o'qishga kirdim va u yerda 9 yil o'qidim”. Maktab ustozlari juda qattiq tartibni saqlardi, lekin u o'zidan juda hursand edi. O'sha vaqtda Peterburg

balet maktabi dunyo bo'yicha eng yaxshi maktab deb topilgan. Xoreografiya va musiqa Pavlovani butunlay fikru – hayolini egallab oldi. Unga juda qattiq tartib ham qiyinchilik tug'dirmasdi. Uni bezovta qilgan hol, uning vazni, u juda ham nozik va yengil edi. U vaqtda esa Italyan raqqoslari sahnani to'ldirib turardi. Ular og'ir vaznli va muskulliroq edilar.

Baxtiga yuqori sinfda o'qituvchisi Pavel Andreyevich Gert o'zining o'quvchisining noyob talanti (qobiliyati) borligini bilib qolib raqs harakatlarining sirlarini o'rgatadi. 1898 – yil Pavlova ilk bor “Ikki yulduz” asariga raqsga tushadi.

Maktabni tugatib 1899 – yil Pavlova Marinskiy teatrida ishga olinadi. Marinskiy teatridagi debyuti 1899 – yil “Faraon qizi” Sezar Punni musiqasi, Sen Yorj postanovkasi asosida raqsga tushadi. 1900 – yil “Floraning uyg'onishi” asarida u Flora partiyasini raqsga tushadi. Pilirburg publikasi bu qizning maxoratini tan ola boshlaydi. Yosh ballerina o'zining musiqaviylik talanti va psixologik ustunligi bilan ajralib turardi. 1902 – yil Pavlova o'zining “Niki” obrazi “Boyaderka” asarida birinchi bor tragedik ro'l ijro etadi. 1903 – yilda esa u ilk bora “Katta teatrdagi” raqs tushadi. Partnyori bo'lmish taniqli xoreograf Mixail Mixailovich Fokin uni yangi obrazlar yaratib yangilik kiritishga chorlaydi. Ular “Shopenion” lar asari (1907) Shopen musiqasi bo'yicha romantizm davrida yangi uslubdagi sahna raqsini birgalikda yaratishadi. 1908 – yil Anna uchun gastrol yili bo'lib: Riga, Gelsinfors, Kopengagin, Praga, Berlin va boshqa davlatlarda gastrol safari muvaffaqiyatlar o'tdi. Anna Sergey Dyagelev truppasida ham ishlaydi va Parijga gastrol safari konsertini qo'yishdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sagatov.Q. Muxamedova.M. “O'zbekiston madaniyati va san'ati fidoyilari”. T.; “Navro'z” 2019 y.
2. Muxamedova.M. “Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi”. T.; “Fan ziyosi” 2021 y.
3. O'.Shokirov, F.Ashrafiy, I. Shokirova. “O'zbekiston madaniyati namoyondalari”. T.; “Xalq merosi” 2001 y
4. R.Karimova. “O'zbek raqslari”. O'quv qo'llanma.T., 2003 y